

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar bo'yicha 2024 yil 16-17-sentabr kunlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti negizida bo'lib o'tgan **"Zamonaviy analiz va matematik fizika masalalari"** nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiya

HISOBOTI

1. Anjuman mavzusi: "Zamonaviy analiz va matematik fizika masalalari".

2. Anjuman maqomi: Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman.

3. Ilmiy va ilmiy-texnika anjumanni o'tkazish uchun asos bo'lgan O'zR Prezidenti farmoni, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug'i asos bo'ladi.

4. Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari:

Anjumanning ilmiy yo'nalishi quyidagilardan iborat:

- ❖ *Matematik va kompleks analiz;*
- ❖ *Differensial tenglamalar va matematik fizika;*
- ❖ *Algebra va geometriya;*
- ❖ *Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika;*
- ❖ *Amaliy matematika*
- ❖ *Matematika o'qitish metodikasi*

Maqsadi: O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan matematik tadqiqotlarning nazariyasi, tajribalari, dolzarb muammolari va istiqbolli yo'nalishlarini muhokama qilish, matematik tadqiqotlarda innovatsion yondashuvlar borasida hamkorlikni yanada rivojlantirish, iqtidorli yosh olimlarni istiqbolli ilmiy yo'nalishlarga jalb qilishdan iborat.

Vazifalari: O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan zamonaviy analiz va matematik fizika tadqiqotlariga bag'ishlangan nazariyalar va metodlarni o'rganish ularni amaliyotga joriy qilish.

5. Muhokama qilinadigan muammolar.

Matematik va kompleks analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika, amaliy matematika, ehtimollar nazariyasi va matematika o'qitish metodikasi hamda ularning tatbiqlariga oid yo'nalishlarning zamonaviy holati kabi masalalar muhokama qilindi.

6. O'tkaziladigan anjumaning Davlat ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi: Anjuman respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Davlat ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirish, ilm-fan yo'nalishida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va yosh olimlarni sohaga jalb qilish hamda ularni sohaning yetuk mutaxassislari bilan aloqalarini yanada mustahkamlash borasida ahamiyatga egadir.

7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.

-zamonaviy matematik analiz tadqiqotlarni bajarishda, muammolarni hamkorlikda hal etishni yuqori darajaga ko'tarish va reytingi yuqori OTM lar bilan tajriba almashish;

- amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarga doktorant, magistrant va iqtidorli talabalarni jalb etish;

- hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida ilmiy tadqiqot institutlari V.I. Romanovski nomidagi matematika instituti hamda Respublikamizdagi reytingiz yuqori oliy talim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish;

-konferensiyada ishtirok etgan olimlar tomonidan keltirilgan tavsiyalar va ishlanmalarni ta'lim, fan va boshqaruv sohalarida qo'llash mexanizmlari amaliyotga tadbiiq etish;

-anjumanda ma'ruza qilingan quyidagi mavzularda "Two-particle Hamiltonians with interactions up to next-neighboring sites", "Gibbs measures of Potts model on trees", mavzularda ilmiy loyihalar tayyorlash;

-professor-o'qituvchilar, doktorant va magistrantlarning ilmiy-ijodiy faolligini oshirish va tadqiqot davomida nufuzli universitetlar bilan hamjihatlikda fikr almashib faoliyat yuritishga sharoit yaratish;

- respublika ilmiy-amaliy anjuman miqyosida ilmiy-tadqiqotchilar uchun samarali tadbir tashkil etish maqsadida zamonaviy matematika soha vakillarini ilmiy salohiyatini yaxshilashga erishish;

- matematik olimlar ilmiy tadqiqotlari qamrovini kengaytirish, ilmiy ish natijalarini nashr etilishi va manbalar bazasi joriy etilishini ta'minlash.

Shuningdek anjumanda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan matematikaga oid tadqiqotlarning nazariy-uslubiy va amaliy ahamiyatga molik natijalari muhokama qilindi. Respublika olimlari bilan ilmiy-amaliy tajriba almashinildi. Zamonaviy analiz va uning tadbiiqlariga oid tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asoslari takomillashtirildi.

8. Anjumanda yosh olimlar, mutaxassislar, doktorantlar, tayanch doktorantlar va magistrantlarning ishtirok etishi: Anjumanda matematik analiz, differensial tenglamalar, alagebra va geometriya, matematikani o'qitish metodikasi fan sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar, yosh olimlar, doktorantlar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, umumiy o'rta va o'rta-maxsus, professional ta'lim muassasalari o'qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar olib borayotgan tadqiqotlarining natijalari, amaliyotga tadbiq etilayotgan ishlanmalari, ilg'or innovatsion g'oyalarini o'zida ifoda etgan ma'ruza, maqola va tezislari bilan ishtirok etishdi (ularning umumiy soni 240 ta). Mazkur respublika ilmiy-amaliy anjumanga mahalliy mutaxassislar, sohalarining malakali kadrlari: V.I. Romabnovskiy nomidagi matematika institutidan akademik U.A. Rozikov, prof. J. Taxirov, Samarqand davlat universitetidan akademik S.N. Laqayev, prof. I.A. Ikromov, prof. J.I. Abdullayev, Malayziyaning Terenganu universitetidan prof. Z. Eshkuvvatov, Andijon davlat universitetidan prof. A. Axlimirzayev, Namangan davlat universitetidan prof. Yu. Apakov, O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi mehnat bozori tadqiqotlari institutidan prof. M.Tajiyevlar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Bundan tashqari konferensiyaga Guliston davlat universiteti, Toshkent davlat transport universiteti va respublikamizdagi boshqa oliy ta'lim muassasalaridan ilmiy tatqiqotchilar va tayanch doktorantlar hamda soha mutaxassislari ishtirok etishdi.

10. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki: Anjuman ishida respublikamizda faoliyat yuritayotgan qator soha korxona va tashkilotlarining ishtiroki ta'minlandi, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, V.I. Romabnovskiy nomidagi matematika instituti, Malayziyaning Terenganu universiteti, Andijon davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi mehnat bozori tadqiqotlari instituti hamda soha oliy o'quv yurtlaridan soha mutaxassislari ishtirok etishdi.

2024 yil 16-oktabr soat 10:00 da konferensiyaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining yalpi majlis kirish so'zida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti prorektori Xushvaqto'v Hakim Abdulhaqovichva, matematika fakulteti dekani Sobir Ulashovlar nutq so'zladi.

Konferensiyaning yalpi majlisida jami 5 ta zamonaviy analizning dolzarb mavzulariga bag'ishlangan ma'ruzlar tinglandi. Shular jumlasidan Samarqand davlat universiteti fizika-matematika fanlari doktori, akademik **Saidahmad Laqayev** "Two-particle Hamiltonians with interactions up to next-neighboring sites", V.I. Romabnovskiy nomidagi matematika instituti fizika-matematika fanlari doktori akademik **Utkir Rozikov** "Gibbs measures of Potts model on trees" hamda Malayziyaning Terenganu universiteti professori **Zainiddin Eshkuvvatov** "Approximate-analytical methods for singular integral equations of the first kind" mavzusida hamda Samarqand davlat universiteti va V.I. Romabnovskiy nomidagi matematika instituti Samarqand bo'linmasi professorlari **Isroil Ikromov, Janikul Abdullayevlar** o'zlarining ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Anjumanning ikkinchi qismi 17-sentabr kuni matematik va kompleks analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika, algebra va geometriya, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, amaliy matematika, matematika o'qitish metodikasi kabi sho'balarda davom etdi.

Ushbu respublika konferensiyasida mamlakatimizda olib borilayotgan zamonaviy matematikaga oid tadqiqotlar nazariyasi, tajribalari, dolzarb muammolari va istiqbolli yo'nalishlari muhokama qilindi. Iqtidorli yosh olimlarni zamonaviy analizning istiqbolli ilmiy yo'nalishlariga jalb qilish hamda hamkorlikni yanada rivojlantirishga kelishildi.

Doktorantlar va magistrantlarning ilmiy tadqiqot ishlariga ilmiy rahbarlik qilish va qisqa muddatli stajirovkalarni tashkil qilishda V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti bilan o'zaro hamkorlik qilishga kelishildi.


“Zamonaviy analiz va matematik fizika masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya fotolavhalari








Lakaev Saidahmad Norjigitovich, f.-m.f.d, akademik Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, (O‘zbekiston)



Utkir Abdullayevich Rozikov, f.-m.f.d, akademik V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti direktor o‘rinbosari, (O‘zbekiston)



Isroil Ikromov f.-m.f.d, professor V.I. Romanovskiy nomidagi matematika innstituti Samarqand bo‘linmasi, (O‘zbekiston).



Abdullayev Janikul Ibragimovich, f.-m.f.d, professor Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, (O‘zbekiston).

prorektor



A.R.Axatov